

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH  
METODIKASINING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI.**

**Chemenova Haljema Bagtiyar gizi**

*Ajinyaz nomidagi NDPI- Boshlang'ich ta'lim fakultetining 2- guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflarga matematika fanining paydo bo'lish tarixi haqida qisqacha ma'lumot berilgan va hozirgi XXI asrdagi matematika darsliklarini solishtiramiz.

**Kalit so'zlari:** matematika o'qitish metodikasi, boshlang'ich sinf, innovatsion texnologiyalar, 2sinf matematika darsligi.

Boshlang'ich sinflarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, darsning samaradorligini yanada oshiradi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda o'rta maktabda matematika o'qitishda, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida o'z ko'lami va ahamiyati jihatidan nihoyatda katta bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ayniqsa, respublikamizning mustaqilligi, maktablar to'g'risidagi Qonun va farmonlarning chiqarilishi buning yaqqol isbotidir. Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanish jarayoni, bozor munosabatlarining raqobatlashuvi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun talablari matematikani turmush bilan bog'lash va uni mustahkamlashga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymaydi, balki muhim o'zgarishlar talab etib, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga ulkan vazifa qo'yadi. Matematika so'zi qadimgi grekcha so'zidan o'lingan bo'lib, uning ma'nosi - "Fanlarni bilish" demakdir. Matematika fanining o'rganadigan narsasi (o'byekti) fazoviy formalar va ular orasidagi miqdoriy munosabatlardan iboratdir. Maktab matematika kursining maqsadi o'quvchilarga ularning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik bilimlar tizimini shakllantirishdan iboratdir. Bu matematik bilimlar sistemasi ma'lum usullar (metodika) orqali o'quvchilarga yetkaziladi. "Metodika" grekcha so'z bo'lib, "metod" degan "yo'l" demakdir. Matematika metodikasi pedagogika fanlari sistemasiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish maqsadlariga muvofiq, matematikani o'qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tatbiq qiladi. Matematika o'qitish metodikasi boshqa fanlar, eng avvalo, matematika fani - o'zining bazaviy fani bilan uzviy bog'liq. Hozirgi zamon matematikasi natural son tushunchasini asoslashda to'plamlar nazariyasiga tayanadi. Boshlang'ich sinf

uchun mo'ljallangan hozirgi zamon matematika darsligining birinchi sahifalarida biz o'quvchilar uchun berilgan topshiriqlarga duch kelamiz:

"Rasmda nechta quyvon bo'lsa, bir qatorda shuncha katakni bo'ya, rasmda nechta bo'ri bo'lsa, 2-qatorda shuncha katakni bo'ya". Bunday topshiriqlarni bajarish bolalarni ko'rsatilgan to'plamlar elementlari orasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatishga undaydi, bu esa natural son tushunchasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Matematika o'qitish metodikasi umumiy metodika qay darajada o'qitilishiga bog'liq. Umumiy matematika metodikasi tomonidan belgilangan qonuniyatlar kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda boshlang'ich matematika o'qitish metodikasi tomonidan ishlatiladi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o'quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo'lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining vazifasi o'quvchilarda mustaqil mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish bilan birga ularda matematikaning qonuniyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalashdan iboratdir. O'quvchilarda matematik tafakkumi va matematik madaniyatni shakllantirish. Matematika darslarida o'rganiladigan ibora, amal belgilari, tushuncha va ular orasidagi qonuniyatlar o'quvchilarni atroflicha fikrlashga o'rgatadi. O'quvchilar matematika darsida olgan bilimlarini kundalik hayotda uchraydigan elementar masalani yechishga tatbiq qila olishga o'rgatish, o'quvchilarda arifmetik amallar bajarish malakalarini shakllantirish va ularni mustahkamlash uchun maxsus tuzilgan amaliy masalani hal qilishga o'rgatish. Matematika o'qitishda texnik vosita va ko'rgazmali qurollardan foydalanish malakalarini shakllantirish. Maktab oldinga hozirgi zamon talablari va ta'lim maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keldi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflar uchun o'qitish metodlarini mukammal egallab, chuqur o'zlashtirib olmog'i zarur. Bundan kelib chiqadi-ki matematika darsligi katta yordam beradi.

2016 -yil nashrdan chiqqan 2-sinf matematika darsligi bilan 2021- yil nashrdan chiqqan darsliklarni taqqoslab ko'rsak ancha o'zgarishlarni ko'rshimiz mumkin. 2016-yil nashrdan chiqqan matematika darsligida sakkizta shartli belgilar berilgan:

1. Multimediali ilova
2. Og'zaki bajarish uchun mashqlar
3. 1,2,3....yozma bajarish uchun mashqlar
4. Katta, kichik, teng belgilarni qo'yish
5. Bo'sh kataklarga kerakli raqam yoki ishoratlarni qo'yish

6.O‘ylab top!

7.Uy vazifasi uchun topshiriqlar

8.Darsning tugashi

Ushbu matematika darsligida so‘zlar ko‘p berilgan, rasmlar esa kam. 2021-yildagi matematika darsligida yettita shartli belgilar berilgan.

1.Og‘zaki bajaramiz

2.Yozma bajaramiz

3.Birga bajaramiz

4.Aqlni charxlaymiz

5.Taqqoslaymiz

6.Amaliy topshiriq

7.Uyda bajaramiz

Bu darslikda esa so‘zlar kam, rasmlar ko‘p berilgan . Shuning o‘zida ham ikkalasining o‘rtasidagi o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Rasmlar ko‘p berilgan darsliklar bolalarning so‘z boyligini ko‘payishiga erkin fikrlashga ruhan va jismonan sog‘lom bo‘lib yetishishda ahamiyatga ega. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar rivojlangani sababli kitoblardagi o‘zgarishlar juda katta. Bu o‘zgarishlar jazzi bilimsevar bolalarimizning yana-da ko‘proq bilim egallashlari uchun olib borilyotgan sayharakatlardir. Bularning natijasini bolsa maroq bilan bilim olayotgan o‘quvchilar timsolida ko‘rshimiz mumkin . Zamanoviy texnologiyalar tez rivojlanishining sababchilari, maktab o‘quvchilarining izlanuvchanligi, chaqqon udaburonligi bilimga zirakligidan intiluvchanligidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda barkamol sog‘lom avlodni tarbiyalash, yoshlarga , ilg‘or pedagogik va innovatsion texnologiyalar asosida ta‘lim berish mamlakatimizning ta‘lim sohasidagi amalga oshirilyotgan ustuvor vazifalaridan biridir. Komil insonni voyaga yetkazishda boshlang‘ich ta‘lim poydevor hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Matematika: 2-sinf uchun darslik/N. Abdurahmonova, L. O‘rinboeva; Ma‘sul muharrir M. Jumayev. -Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. Matematika: 2- sinf uchun darslik Lolaxon O‘runbayeva, Shuxrat Ismoilov, Nigora Ruzikulova va Umida Raxmonova . Toshkent:2021.
3. WWW.google.uz
4. Baxtiyor. uz